


**Oriental Journal of Philology****ORIENTAL JOURNAL OF PHILOLOGY**

journal homepage:

<http://www.supportscience.uz/index.php/ojp/about>**ABBREVIATION IN DARI PRESS****Yusuf Khojakulov**

Senior lecturer

Tashkent State University of Oriental Studies

Tashkent, Uzbekistan

**ABOUT ARTICLE**

**Key words:** abbreviations, appropriations, press language, mass media, international organizations, state political system, phonetic change, capital letter.

**Received:** 15.05.24**Accepted:** 17.05.24**Published:** 19.05.24

**Abstract:** this article presents the issue of abbreviation, which has not been researched by Afghan scholars either in Afghanistan itself or in other foreign countries, the history and extent of its use in the Dari press, and the situation of phonetic changes of adopted abbreviations. 'reviewed and researched. To study this topic, articles in newspapers published in the Dari language were used as a source. This article is the first introduction to this topic.

**DARIY MATBUOTIDA ABBREVIATURA****Yusuf Xo'jaqulov**

katta o'qituvchi

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Toshkent, O'zbekiston

**MAQOLA HAQIDA**

**Kalit so'zlar:** qisqartma so'zlar, o'zlashmalar, matbuot tili, OAV, xalqaro tashkilotlar, davlat siyosiy tizimi, fonetik o'zgarish, bosh harf.

**Annotatsiya:** mazkur maqolada hozirgi kunga qadar afg'onshunos olimlar tomonidan na Afg'onistonning o'zida va na boshqa xorijiy mamlakatlarda tadqiq etilmagan abbreviatura masalasi, uning dariy matbuotida ishlatilish tarixi va ko'lami, o'zlashma abbreviaturalarning fonetik o'zgarishlarga uchrashi holati ko'rib chiqilgan va tadqiq etilgan. Ushbu mavzuni o'rganish uchun hozirgi kunda dariy tilida nashr etilayotgan ro'znomalardagi maqolalar manba sifatida asos qilib olindi. Mazkur maqola ushbu mavzu bo'yicha bajarilgan ilk debochadir.

## АББРЕВИАТУРА В ПРЕССЕ ДАРИ

*Юсуф Ходжакулов**Старший преподаватель**Ташкентский государственный университет Востоковедения**Ташкент, Узбекистан*

## О СТАТЬЕ

**Ключевые слова:** аббревиатуры, ассигнования, язык печати, средства массовой информации, международные организации, государственная политическая система, фонетическое изменение, заглавная буква.

**Аннотация:** в данной статье представлены вопросы аббревиатуры, не исследованные афганскими учеными ни в самом Афганистане, ни в других зарубежных странах, история и масштабы ее использования в дарийской прессе, а также ситуация фонетических изменений принятых аббревиатур. Рассмотрено и исследовано. Для изучения данной темы в качестве источника использовались статьи в газетах, издаваемых на языке дари. Эта статья является первым введением в эту тему.

## KIRISH

Yigirmanchi asrning ikkinchi yarmi va yigirma birinchi asrning dastlabki ikki o'n yilligida Afg'onistonda amalga oshayotgan siyosiy jarayonlar, ijtimoiy va iqtisodiy sohalaridagi o'zgarishlar Afg'onistonning rasmiy davlat tili bo'lgan dariy tili, ayniqsa dariy tilidagi matbuotda bevosita o'z aksini topmoqda. Mazkur jarayonlar dariy tilining lug'at tarkibida yangi so'zlar paydo bo'lishiga asos bo'lib, ular turli grammatik usullar, ba'zi holatlarda ushbu jarayon va o'zgarishlar ma'no jihatdan tarjima shakli orqali ifodalansa, ba'zan esa mazkur yangi tushuncha va atamalar o'zlarining asl shakllari, ya'ni asliyatdagi shaklida berilganiga guvoh bo'lamiz. Sharq tillari, ayniqsa dariy tilida o'n to'qqizinchi asrgacha bo'lgan davrda deyarli uchramaydigan va uning grammatik qurilishi jihatidan g'aliz va tushunarsiz holatlarga olib kelish ehtimoli yuqori bo'lishiga qarshi o'laroq yangi leksik birliklar kirib kelmoqda.

## ASOSIY QISM

Dariy tilida juda kam uchraydigan va odatda kengaytma shaklida ishlatilib kelingan yangi so'zlar ishlatilayotganiga guvoh bo'lamiz. Bu holat ayniqsa matbuotda ishlatilayotgan qisqartma so'zlarda yaqqol o'z aksini topmoqda.

رهبری قوای مسلح افغانستان بیشتر از اشرف غنی به فرماندهی نیروهای **ناتو** در افغانستان پاسخگو و طرف

هستند. (11:25.12.2019)

(دلبستگی اعضای سابق حزب دموکراتیک خلق به اشرف غنی، 25.12.2019)

Tarjima: Afg'oniston Qurolli kuchlari rahbariyati Ashraf G'aniyga nisbatan ko'proq NATO kuchlarining Afg'onistondagi rahbariyatiga bo'ysunadilar va u bilan aloqada bo'lib turadilar.

Mazkur jumladagi ناتو so‘zi ingliz tilidagi qisqartma so‘z shaklining asliyat shaklida ishlatilgan va ushbu so‘z ingliz tilidan dariy tiliga tarjima yoki kengaytma shaklida berilmagan.

پس از حدود 13 سال، با تحویل سال عملیات «نیروهای بین المللی همکاری امنیتی» یا **آیساف** در افغانستان پایان می یابد. (5:28.12.2014)

(آیساف در افغانستان: مأموریت طولانی نیروهای بین المللی، رسول رحیم، 28.12.2014، دوچی ویلی)

Tarjima: Deyarli 13 yildan so‘ng, yangi yil kirib kelishi bilan “Xalqaro xavfsizlik kuchlari” yoki AYSEFning Afg‘onistondagi amaliyotlari tugaydi.

Yuqoridagi jumladagi آیساف so‘zi ham dariy tilida asliyat shaklida ishlatilgan bo‘lib, ba‘zi o‘rinlarda kitobxonga tushunarliroq bo‘lishi uchun uning dariy tilidagi tarjimasi ham uning ekvivalenti shaklida qo‘shirnoq yoki qavs ichida keltiriladi va bu holat kitobxonga mazkur so‘zning ma‘nosi xatosiz, to‘liq va tushunarli bo‘lishi uchun izoh o‘rnida ishlatiladi.

Ingliz tilidan o‘zlashgan qisqartma so‘zlar dariy tilining fonetik talablariga moslashadi va fonetik o‘zgarishlarga uchraydi: NATO (ناتو) so‘zi tarkibidagi “a” tovushi cho‘ziq “â” tovushiga, “o” tovushi esa “u” tovushiga o‘zgargan. Bu o‘zgarishlarni boshqa misollarda ham ko‘rish mumkin.

Afg‘onistondagi dariy tilidagi matbuotda yevropa tillaridan o‘zlashgan qisqartma so‘zlardan bilan bir qatorda bevosita dariy tilidagi so‘z birikmalarining ham qisqartma shakli ishlatilishi kuzatiladi.

نزدیک شدن امریکا و طالبان به توافق صلح، تجلیل با شکوه از صدمین سالروز استقلال، برگزاری انتخاباتهای پارلمانی و ریاست جمهوری، رهایی انس حقانی و استادان دانشگاه امریکایی از زندان و ختم فعالیت **داعش** در ننگرهار، از مهم ترین رویدادهای 2019 میلادی در افغانستان بود. (11:02.01.2020)

(2020سالی سرنوشت ساز برای افغانستان، 02.01.2020)

Tarjima: Amerika va Toliblarning tinchlik kelishuvi bo‘yicha o‘zaro yaqinlashishga erishishi, mustaqillik yuz yillik yubileyining hashamatli nishonlanishi, Parlament va Prezidentlik saylovlarning o‘tkazilishi, Anas Haqqoniy va Amerika universiteti o‘qituvchilarining qamoqdan ozod etilishi va Nangarhorda IShID faoliyatining tugatilishi milodiy 2019-yilda Afg‘onistonda amalga oshirilgan va bo‘lib o‘tgan eng muhim voqealardandir.

Yuqoridagi misolda keltirilgan داعش so‘zi esa bevosita dariy tilining o‘zida mavjud bo‘lgan va uning ichki imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda yasalgan عراق و شام so‘z birikmasining qisqartma shaklidir.

Yigirmanchi asrning saksoninchi yillaridan boshlab OAV, dariy tilida nashr etilgan gazeta va jurnallarda ham tashkilotlarning nomlari ham qisqartma shaklida ishlatilgan:

منشی عمومی کمیته مرکزی **ح.د.خ.ا.** (12:12.05.1367)

Tarjima: Afg‘oniston Xalq Demokratik Partiyasi (AXDP) Markaziy komiteti bosh sekretari.

Mazkur jumlada ishlatilgan ا. خ. د. ج. qisqartmasi Afg'onistonning sobiq Sovet Ittifoqi bilan siyosiy aloqalari ta'siri ostida rus tilida mavjud SIKP (KPSS) qisqartma so'zi asosida yasalgandir, chunki yigirmanchi asrgacha dariy tilida qisqartma so'zlar ishlatilmagan va qisqartma so'zlar asosan yigirmanchi asrning ikkinchi yarmi va yigirma birinchi asrning hozirgi kuniga qadar ishlatila boshlangani ko'zga tashlanadi.

Dariy tilidagi ba'zi bir rasmiy hujjat va yozishmalarda ham dariy tili so'z birikmalarining qisqartma shakli ishlatiladi.

بخش کنسولگری سفارت **ج.ا.ا.** در تاشکند فقط از برحالی مهر وزارت امور خارجه تأیید میکند. (13:06)

Tarjima: AIR ning Toshkentdagi elchixonasi Konsullik bo'limi faqat Tashqi ishlar vazirligining muhri haqiqiylikini tasdiqlaydi.

Ushbu jumlada ishlatilgan ا. ا. ج. qisqartmasi افغانستان اسلامی جمهوری so'z birikmasidan yasalgandir.

Mazkur qisqartma so'zlar siyosiy, ijtimoiy, xalqaro tashkilotlarning nomlari bilan bog'liq bo'lib, ular xorijiy tillar, ayniqsa yevropa tillari ta'siri ostida kirib kelmoqda.

Ushbu qisqartma so'zlar quyidagi sohalarga tegishli:

1. Davlat siyosiy tizimi;
2. Xalqaro tashkilotlar;
3. Davlat tashkilotlari.

Yuqorida keltirilgan misollardan ko'rinib turibdiki, yigirmanchi asrning ikkinchi yarmidan boshlab hozirgi kungacha bo'lgan davrida dariy tilidagi OAV va matbuotida qisqartma so'zlar ko'lami oshib bormoqda. Mazkur qisqartma so'zlarning dariy tilida ishlatilishi hozirgi kunda dariy OAV va matbuotida faoliyat yuritayotgan ko'plab muxbir va xodimlarning chet elda tahsil olishi, Afg'onistonning ko'plab xorijiy mamlakatlar bilan siyosiy, iqtisodiy-ijtimoiy va madaniy sohalardagi aloqalari, jumladan, harbiy tashkilotlarning Afg'onistondagi faoliyati natijasidir.

Misol tariqasida keltirilgan qisqartma so'zlar so'z birikmalari tarkibidagi so'zlarning birinchi tovushlarini ifodalovchi harflarning yig'indisidan yasalgan. Dariy tilida qisqartma so'zlarning boshqa turlari ko'rib chiqilgan material va misollarda uchramadi.

Ba'zi o'rinlarda so'z birikmalari tarkibidagi ba'zi so'zlarning tushib qoldirilishi holati ham mavjud bo'lib, mazkur tushib qolgan so'zlar so'z birikmasining umumiy ma'nosiga ta'sir etmaydi:

Qisqartirilgan shakli: وزیر خارجه، وزیر داخله

To'liq shakli: وزیر امور خارجه، وزیر امور داخله

Ushbu so'z birikmalarida امور (ishlar) so'zi tushib qoldirilgan.

Bu holat o'zbek va rus tillarida uchramadi va dariy tilida ham faqat tashkilotlarning nomlari bilan bog'liq so'z birikmalarida uchraydi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. Белоконь В.В. Иноязычные заимствования в лексическом составе современного литературного языка дари: В сопоставлении с персидским и другими близкородственными языками. Автореферат. М., 2006
2. Киселева Л.Н. Дари-русский словарь. М., 1986.
3. Киселева Л.Н. Язык дари Афганистана. М., 1985.
4. Ю.А. Рубинчик тахрири остидаги Персидско-русский словарь, М., 1986
5. سعید حقیقی. فارسی دری ۱۰ سال پس از سقوط طالبان در افغانستان، کابل، ۲۰۱۱.
6. [www.afghanistan.com](http://www.afghanistan.com)
7. [www.kabulnanth.de](http://www.kabulnanth.de)
8. [www.afghana.com](http://www.afghana.com)
9. [dawatnet@start.no](mailto:dawatnet@start.no)
10. [www.afghanpaper.com](http://www.afghanpaper.com)
11. [www.farsi.ru](http://www.farsi.ru)
12. روزنامه "حقیقت انقلاب ثور".
13. نکاحنامه به زبان دری.